

O‘SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXODIAGNOSTIKASI

Azizova Elnora Adhamjon qizi

GulDu mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik yoshidagi bolalarda agressiv xulq atvorni namoyon bo‘lishida oilaning tahlil qilingan bo‘lib, ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va psixologlar fikrlari keltirilgan. Shuningdek, o‘smirlik davrida agressivlikni keltirib chiqaruvchi omillar to‘g‘risida mulohaza yuritilgan, ularga yechim bo‘luvchi taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, agressivlik, oila, ota-ona, xarakter, psixologiya, namoyon bo‘lish, munosabat, tajovuz, ijtimoiy muhit.

Аннотация: В данной статье анализируется роль семьи в проявлении агрессивного поведения у подростков, представлены научные работы психологов, проводивших исследования по данной теме, а также мнения психологов. Кроме того, обсуждаются факторы, вызывающие агрессию в подростковом возрасте, и даются предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Подростковый возраст, агрессия, семья, родители, характер, психология, проявление, отношение, агрессия, социальная среда.

Abstract: This article analyzes the role of the family in the manifestation of aggressive behavior in adolescents, presents the scientific research works of psychologists who have conducted scientific research on this topic, and the opinions of psychologists. In addition, the factors that cause aggression in adolescence are discussed, and suggestions and recommendations are given to solve them.

Keywords: Adolescence, aggression, family, parents, character, psychology, manifestation, attitude, aggression, social environment.

O‘smirlik davrida psixologik muammolarni bartaraf etish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Oila, maktab, jamiyatning o‘sib kelayotgan avlodga bo‘lgan axloqiy-ma‘naviy, siyosiy-ijtimoiy, ideologik talablari kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda kelajak avlodga ta‘sir qilayotgan hamda uning kechinmalarini o‘zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko‘z oldimizga keltirish juda qiyin. O‘smirlik davrini o‘rganuvchi ko‘pchilik olimlar agressiya, emotsional qo‘zg‘alishni, jahl chiqqan holatlarda balog‘atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo‘lishiga ko‘proq e‘tibor qaratganlar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo‘lmaydi, lekin

boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo'lishga intiladilar. O'smirlik davri insonni bolalikdan -yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir.

Agressiv xulq-atvorni aniqlash va baholash uchun turli psixodiagnostik metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar o'smirlardagi agressiya darajasini, uning turlarini (verbal, jismoniy, o'ziga nisbatan va h.k.) va kelib chiqish sabablarini aniqlashga yordam beradi. Test va metodikalar, Bass-Darki test-anketa (Agressiyani o'lchash shkalasi)

- Agressiyaning turli shakllarini (jismoniy, verbal, o'ziga nisbatan, irratsional va h.k.) aniqlaydi. 75 ta savoldan iborat, javoblar ball bo'yicha baholanadi.

Rozensveygning frustratsiya testlari

- O'smir qanday holatlarda agressiyani namoyon qiladi va uni qanday chiqaradi?
- Turli vaziyatlar tasvirlangan rasmlarga asoslanadi, testdan o'tgan shaxs o'z munosabatini bildiradi.

“Agressivlik indeksi” metodikasi (Ye. P. Ilin, P. A. Kovalov)

- Agressiya va tajovuzkorlik darajasini baholash uchun 20 ta savoldan iborat.
- Javoblar orqali agressiyaning ustuvor shakli aniqlanadi.

Leonard-Shmishek xarakter aksentuatsiya testlari

- O'smirlardagi aksentuatsiyalangan shaxsiy xususiyatlarni aniqlash orqali agressiya bilan bog'liq xususiyatlar o'rganiladi.

“Qo'lsiz odam” proyektiv metodikasi

- Bolaning rasm chizish qobiliyati orqali uning ichki tajovuzkorlik darajasi tahlil qilinadi.

Bevosita kuzatish va ekspert baholash:

Psixologik kuzatuvlar

- O'smirlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvori kuzatiladi (maktabda, oilada, do'stlar orasida).

Ota-ona va o'qituvchilar so'rovnomasi

- O'smirning jamiyatdagi munosabati haqida ota-ona va o'qituvchilardan ma'lumot olish.

Intervyu va psixologik suhbatlar

- O'smirning agressiv munosabati va uning sabablarini tushunish uchun olib boriladi.

Diagnostika natijalarini tahlil qilish

- Test va kuzatuv natijalari asosida xulosa chiqariladi.
- Agressiya turi, uning darajasi va kelib chiqish sabablari aniqlanadi.
- Korreksion ishlarni tashkil qilish uchun tavsiyalar beriladi.

Jismoniy agressiya jasurlik, qat'iylik, tavakkalchilikka moyillik, betakalluflik, avantyuraga moyillik bilan ajralib turuvchi, faol, serg'ayrat, maqsadga intiluvchan

bolalarda ustunlik qiladi. Ularda ekstravertlashganlik (kirishimlilik, shaxslararo munosabatlar o'rnatishda erkinlik, o'ziga ishonch)shuhratparastlik, jamiyat tomonidan tan olinishga intilish bilan birga birikadi. Bularning hammasi yaxshi rivojlangan liderlik xususiyatlari, tengdoshlarni jipslashtirish, ular o'rtasida majburiyatlarni to'g'ri va teng taqsimlash, o'zini ketidan ergashtirish malakasi bilan mustahkamlanadi. Shu bilan birga maqsadga erishishga astoydil harakat qilingan (shafqatsiz moyillikning ustunligi), atrofdagilarga o'zining hukmronligini namoyish qilish va yaqin odamlarining azoblanishiga majbur qilish o'ziga xos huzur baxsh qiladi. Bundan tashqari, jismoniy agressiyali bolalarni ijtimoiy qulaylikning, vazminlik va mulohazalilikning yo'qligi, yomon o'z-o'zini nazorat qilish ajratib turadi. Bu qiziqishlarning yetarlicha ijtimoiylashmaganligi, o'z ehtiyojlari qondirilishini to'xtatishni bilmaslik yoki kechiktirish istagining yo'qligi bilan bog'liqligini taxmin qilish mumkin.

Shuningdek, autoagressiya o'zi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi o'z-o'ziga qarshi qaratilgan hatti-harakat, ya'ni o'zini-o'zi ayblash ham sinaluvchilarda yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlandi.

Jizzakilik shkalasining yuqoriligi esa, ularda xulq-atvorning oppozision, mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib, ular bilan kurashishgacha bo'lgan reaksiyalarning ustunligini ifodalaydi. Sinaluvchilarda shubhalanuvchanlik, ya'ni ishonchsizlikka moyillik, odamlar bilan ehtiyot bo'lib munosabat o'rnatish, atrofdagi insonlar bilan muomala-munosabatda bo'lishdan qochish, ular menga zarar yetkazishi mumkin, degan tasavvurning mavjudligi kuzatiladi. Shuningdek, verbal agressiya shakli ya'ni salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash ham sezilarli darajada ustivorligi aniqlandi. Yuqoridagi shkalalarning 7-sinf o'quvchilarida ko'proq ekanligini quyidagicha izohlash mumkin. **Bu yoshdagi agressiv hulq-atvorning o'ziga xos xususiyatlari kattalar nufuzining yo'qolishi fonida tengdoshlari guruhiga tobelik bo'lib hisoblanadi va agressiv bo'lish ko'pincha "kuchli bo'lish yoki shunday tuyulish"ni anglatadi. Ular nazdida kuchli bo'lish bu o'z guruhida tanilish, mavqeini ko'tarish, hurmattalablik, boshqalarga o'zini ko'rsatib qo'yish orqali e'tibor markazida bo'lishlikni anglatadi. Shuningdek, aynan shu yoshda "o'tish inqirozi" eng jadal sur'atda kechayotganligini bolaning tez o'zgaruvchan emosional holatidan, boshqalarga nisbatan bo'layotgan munosabatlarini anglashning o'zi yetarlidir.**

Verbal agressiyaga moyil bolalarga quyidagilar xos: mazkur agressiyaning shaklini birinchidan, yuqori xavotirlanishda, o'ziga ishonchsizlikda, bezovtalanishda, shubhalanishda namoyon bo'luvchi psixik muvozanatlashmaganlik ajratib turadi.

Ikkinchidan, bunday bolalar uchun depressivlik xosdir: faollikning, kayfiyatning va ish qobiliyatining pasayishi. Birinchi tanishuvda ular badqovoq, yoniga borib bo'lmaydigan, haddan tashqari o'zini yuqori qo'yishi sababli muloqotdan qochuvchi

bo'lib ko'rinadilar. Biroq, yaqin do'stlari orasida ular o'zlarini erkin tutib, kirishimli va sergap, xatto hazilkash va askiyachi bo'lib qoladilar.

Uchinchidan, past frustrasion tolerantlikni ta'kidlash mumkin: mayda qiyinchiliklar yoki omadsizliklar haddan tashqari izdan chiqadiki, ular o'z emosiylarini boshqara olmaydilar va bunday o'smirlar o'z faoliyatlarini unumli davom ettira olmaydilar. Yuqori ta'sirlanuvchanlik va qo'zg'aluvchanlik birikmasi ularda hattoki, ahamiyatsiz yoki indifferent qo'zg'ovchilar noadekvat jo'shqin bir onli achchiqlanish va g'azabni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, kuchli emosional qizishish, shuningdek, dushmanlik va xavfsirash boshqalarning ular shaxsiga: o'z-o'ziga baho berish, obro'si va o'z qadrini bilishga nisbatan munosabatda turli real yoki xayoliy xatti-harakatlarida yuzaga keladi. Bunda ular atrofdagilarga nisbatan fikr va munosabatni, o'z his-tuyg'ularini yashirishni bilishmaydi yoki yashirish kerak deb hisoblashmaydi va ularni haqoratlovchi verbal shaklda ifodalaydilar. Bundan tashqari, ular uchun o'z-o'zi bilan doimiy ichki nizo xos bo'lib, o'z navbatida achchiqlanish, jahl yoki qo'rquvning kutilmagan reaksiyalaridan "tashqarida" yo'qolib, ular tanglik va asabiylikning barqaror holatida namoyon bo'ladi.

Katta o'smirlarda agressivlikning o'rta o'smirlarga nisbatan kam kuzatilishini ular asta-sekinlik bilan bevosita ishlari va xatti-harakatlarining natijalarini hamda oqibatlarini oldindan ko'ra boshlay olishi bilan izohlash mumkin. Ularda o'z-o'zini tuta bilish, matonat paydo bo'lishi, qarorlari birmuncha qat'iy bo'la boshlashi, iroda tarkib topishini kuzatish mumkin. Ular o'zlarining faoliyatlarida ishtiyoq va istaklardan ko'ra ko'prok sog'lom fikrga asoslanadigan bo'ladilar. Ularning ichki kechinmalari va hayajonlari endi irodaviy nazoratga bo'ysundirilgan bo'ladi. Lekin axloqiy va estetik hislarning taraqqiyoti tufayli ichki kechinmalari va hayajonlari yanada kuchliroq bo'ladi. O'smir ulg'aygan sari unda "Ideal Men", "Axloqiy Men" va "Haqiqiy Men" singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai-nazari asosida tashkil qila boshlaydi. Katta o'smirlarga nisbatan kichik o'smirlarda paydo bo'ladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilish bilan emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-ko'y, ya'ni ijtimoiy sharoitlar ta'siri bilan bog'lash mumkin. [66;130b]

V.D. Shadrikov konfliktidagi xulq-atvor uslubini asos qilib olib, tajovuzkorlikning quyidagi turlarini aniqlaydi:

- himoya – bolaning faol pozitsiyasiga ega bo'lishiga qaramay, atrofdagi dunyodan qo'rquv kuchayib ketganda paydo bo'ladi; bu holatda tajovuzkorlikning asosiy vazifasi tashqi dunyodan himoya qilishdir, bu bola uchun xavfli bo'lib tuyuladi;
- halokatli - agar bolada erta yoshda avtonomiya, mustaqil tanlash,

mulohazalar va baholash qobiliyati bo'lmasa, faol versiyada buzg'unchi tajovuzkorlik namoyon bo'ladi;


- ko'rgazmali - tashqi dunyodan himoya sifatida paydo bo'lmaydi va hech kimga zarar etkazmaydi, balki bolaning e'tiborini jalb qilish istagi sifatida paydo bo'ladi [35; 94-b.].

Biz tadqiqot ishimizda o'smirlardagi agressiv xulq-atvor xususiyatlarining namoyon bo'lishini atroflicha va to'liq o'rganish maqsadida "Mavjud bo'lmagan hayvon" proyektiv metodikasidan foydalandik. "Mavjud bo'lmagan hayvon" (MBH) metodikasi – bolalar agressivligini tashxis qilishning keng tarqalgan proyektiv metodikalaridan biridir. Asosan shaxs xususiyatlarini, bolaning ustanovkalari va psixologik muammolarini aniqlash yoki aniqlashtirish maqsadida "psixolog-bola" o'zaro ta'siri tartibida o'tkaziladi. MBH metodikasi proyektiv bo'lganligi sabab, bu yerda bolaning fantaziya qilish va yaratilgan obrazni grafik tasvir yoki rasm ko'rinishida aks ettirish qobiliyati asosiy ahamiyatga ega. MBHning ikkinchi xususiyati shundaki, bola tomondan aks ettirilgan grafik material nafaqat fantaziya obrazlarining shakllanishida ma'lum bir vazifani bajaruvchi emosiyalar bilan, balki bolaning real shaxsiy va ijtimoiy muammolari bilan ham chambarchas bog'liq. Va nihoyat, uchinchi rasmni sharhlash jarayonida tasvirning majoziyligi bola shaxsiga ko'chiriladi va proyeksiya jarayoni ong nazoratisiz borishiga qaramasdan, bolaning ongli ustanovkalarini aks ettirishidan kelib chiqib, psixologik darajalarda bayon qilinadi.

Metodika standart tartibda olib boriladi. Avval bola bilan ishonchli aloqa o'rnatib, so'ng uni topshiriq mazmunidan xabardor qilish lozim. Yo'riqnoma: "Mavjud bo'lmagan hayvonni o'ylab top va rasmini chiz va unga mavjud bo'lmagan ism ber" So'ng multfilmlardan hayvon olish mumkin emasligini, chunki u kimdir tomonidan o'ylab topilganini; yo'q bo'lib ketgan hayvonlar ham to'g'ri kelmasligini aniqlashtirish lozim.

O'tkazish uchun uchli ochilmagan o'rtacha qattiqlikdagi qalam zarur (ruchka, flomaster bilan chizish mumkin emas). Qog'oz varag'i standart, oq yoki oq-sariq, faqat yaltiroq emas. Qog'oz vertikal tarzda turishi kerak. **(I.A.Furmanov)** (Metodika tahlili ilovada berilgan)

Biz "Mavjud bo'lmagan hayvon" metodikasining natijalari asosida o'smirlardagi agressivlik darajasini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bunda uchta: yuqori, o'rta va past darajalarga bo'lib oldik.



2.1.2-rasm. O'smirlardagi agressivlik darajalari (foiz hisobida)

Ma'lumki, ushbu proyektiv metodika orqali o'smirlarning turli emosional holatlari, xulq-atvor xususiyatlari, shaxsiy va ijtimoiy muammolarini aniqlash imkoniyatini beradi. Biz natijalarni sifat hamda miqdor jihatdan tahlil qilib quyidagi xulosalarga keldik: Yuqori agressivlik –30.4%, o'rta darajadagi agressivlik –49.6% va past darajadagi agressivlik –20% o'smirlarda aniqlandi. Yuqori darajadagi agressivligi mavjud o'smirlarda o'zini o'zi namoyon etish, tan olinishga ehtiyoj, yuqori darajadagi xavotirlik, g'ayrat, affektiv holatlarni nazorat qilolmaslik, astenik holatlar xos ekanligi ma'lum bo'ldi. O'rta darajadagi agressivlik mavjud o'smirlarda o'ziga ishonch, yengil asabiylik, himoyalalanish, depressiyaga moyillik, yuqori bosim hamda past darajadagi agressiv o'smirlarda mustaqillik, umumiy tonusning pastligi, tashabbuskorlik, namoyishkorlik, originallikning yo'qligi, qat'iyatsizlik kabi xususiyatlar namoyon bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agressiv xulq muammosining tadqiqi bilan shug'ullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilayotgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf etish orqali samarali natijaga erishish mumkin va xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y beradi. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar (etiopatogenezi) tibbiy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish miqdori-kompleks yondashuvni talab etadi. Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar, ularning intellektual-emotsional- irodaviy rivojlanishdan ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Л.М.Семенюк «Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции» Москва, 1996 96-ст.
- 2.Р.Берон Д.Ричардсон – Агрессия спб 1997. 104 ст.
- 3.К.Ю Гуляева «Агрессивность в подростковом возрасте и ее коррекция» УДК

159.96+159.94+316.6 23.12.2006г.

4. Илешева Р.Г. Нарушения поведения у детей и подростков.— Алма-Ата: Наука, 1990. – 160 ст.

5. Юнусова, Гузаль Султановна. «Развитие воображения молодежи и подростков, воспитывающихся в благополучных и неблагополучных семьях.» *theoretical & Applied Science* 6 (2013): 91-94.

.